

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Ko'lyozma huquqida
UDK: 336.77(575.1)*

AMONOV SHOXRUX SHAVKAT O'G'LI

**MAMLAKAT IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYALASH
SHAROITIDA VALYUTANI TARTIBGA SOLISH MASALALARI**

5A230701 – Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD. Axmedov F.X.

TOSHKENT – 2019

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida valyuta operatsiyalari va uni tartibga solishning nazariy-metodologik asoslari o'rganilgan, O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va valyuta siyosati tahlil qilingan, O'zbekiston Respublikasida valyuta munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Theoretical methodological bases of the monetary relations and its regulation are investigated, monetary policy and legal economic bases of the monetary relations in the Republic of Uzbekistan are analyzed, the priority directions of improvement of regulation of the monetary relations in the Republic of Uzbekistan are worked out in this dissertation.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Bank ishi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. _____ - sonli bayonnoma « ____ » _____ 2019 y.

Ilmiy rahbar: PhD. F.Axmedov


imzo

_____ sana

Magistr: Sh.Amonov



imzo

_____ sana

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Bank ishi" kafedrasi mudiri

dots. U.Duskobilov


" 30 " May 2019 yil

Himoya 2019 yil "27" May soat 14-00 da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. VALYUTANI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	7
1.1.Valyuta siyosatining iqtisodiy mohiyati va bu boradagi nazariy yondashuvlar	7
1.2. Valyutani tartibga solishning huquqiy asoslari.....	14
Birinchi bob boyicha xulosa.....	22
II BOB. O‘ZBEKISTONDA VALYUTANI TARTIBGA SOLISHNING JORIY HOLATI	24
2.1. O‘zbekistonda valyuta siyosatini liberallashtirish amaliyoti va uning dastlabki natijalari tahlili.....	24
2.2. O‘zbekiston Respublikasi valyuta bozorining joriy holati tahlili	34
2.3. Valyutani tartibga solishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari.....	43
Ikkinchi bob boyicha xulosa	51
III BOB. O‘ZBEKISTONDA VALYUTANI TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	53
3.1. Valyutani tartibga solishning xorijiy mamlakatlar tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari	53
3.2. O‘zbekistonda valyuta siyosatini liberallashtirish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....	59
Uchinchi bob boyicha xulosa	68
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	73

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Soʻnggi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish boʻyicha koʻrilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, valyuta muomalasi sohasining haddan ziyod maʼmuriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xoʻjalik yurituvchi subʼektlar uchun imtiyoz va preferensiyalarning asossiz ravishda kam samarali boʻlgan tizimini shakllantirdi, biznes yuritishda teng boʻlmagan shart-sharoitlarning vujudga kelishi va raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keldi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, tovarlar va xizmatlar eksporti samaradorligini pasaytiruvchi omilga aylandi¹.

Valyuta siyosati doirasida yuzaga kelgan bu kabi nomutanosibliklar sohani liberallashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Zero, valyuta siyosati makroiqtisodiy koʻrsatkichlar barqarorligini taʼminlashi barobarida mamlakatda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishda ham muhim indikator hisoblanadi. Bu borada, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni taʼkidlab oʻtdi: “Valyuta siyosati biznes va iqtisodiyotni rivojlantirish manfaatlariga toʻliq xizmat qilishi, investitsiya faoliyatiga ijobiy turtki berishi lozim”².

Bugungi kunda valyuta siyosatini liberallashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida sohadagi mavjud muammolarni yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar hamda xulosalarni oʻz ichiga olgan tadqiqotlarning olib borilishi muhim sanaladi. Bu esa, tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5177-sonli Farmoni.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. Oʻzbekiston Milliy axborot agentligining rasmiy veb-sayti – www.uza.uz